



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'ZBEK VA INGLIZ MIFOLOGIYASIDA AYOL OBRAZI TIMSOLIDAGI TALQINLAR.

Mamadiyarova Matluba

SamDChTI stajyor – tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek va ingliz mumtoz adabiyoti va ingliz kurtuaz adabiyotida ayol obrazi timsolida gavdalangan ilohiy ishq konsepsiyasining badiiy-falsafiy talqinini qiyosiy nuqtai nazardan tadqiq etadi. Unda o'rta asr sharq tasavvufshe'riyati va Yevropa ritsarlik an'analarida ayol obrazi orqali ifodalangan muhabbatning ruhiy-transformativ mohiyati, uning inson kamolotidagi o'rni va "erishib bo'lmas ma'shuqa" motivining metafizik mazmuni tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, har ikki adabiy maktabda ayol obrazi nafaqat estetik ideal, balki ruhiy yuksalishni ta'minlovchi vositachi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, tasavvufda ayol obrazi ilohiy jamolning teofanik tajassumi sifatida talqin etilsa, kurtuaz adabiyotida u ritsarning axloqiy yetuklikka erishishiga xizmat qiluvchi yuksak ideal timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari Sharq va G'arb o'rta asr ma'naviy tafakkurining mushtarak universal arxetiplarini aniqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *turkiy xalqlar, ayol obrazi, mifologiya, O'rxun-Enasoy, kurtuaz adabiyoti, fin'amor, fano, arxetip, qiyosiy adabiyotshunoslik.*

Abstract. *This article examines the artistic and philosophical interpretation of the concept of divine love embodied in the image of a woman in Uzbek and English classical literature and English courtly literature from a comparative perspective. It analyzes the spiritual and transformative essence of love expressed through the image of a woman in medieval Eastern mystical poetry and European chivalric traditions, its role in human perfection, and the metaphysical content of the "unattainable mistress" motif. According to the results of the comparative analysis, in both literary schools the image of a woman is considered not only an aesthetic ideal, but also a mediator ensuring spiritual elevation. At the same time, while in Sufism the image of a woman is interpreted as a theophanic embodiment of divine beauty, in courtly literature she appears as a symbol of a high ideal that serves the knight to achieve moral maturity. The results of the research serve to identify common universal archetypes of medieval spiritual thought in the East and West.*

Keywords: *Turkic peoples, female image, mythology, Orkhun-Enasoy, courtly literature, fin'amor, fano, archetype, comparative literary studies.*

KIRISH

Turkiy xalqlar mifologiyasida Umay yer usti , osmon bilan chambarchas bog'langan bo'lsa va yer osti olami bilan bog'liq ayol ma'budalar orasida bu olamining hukmdori Erlikning qizi Erlik-qiz alohida o'rin egallaydi. V. Ya. Butanayevning fikriga ko'ra, "Erlik-qiz yer osti olamining hukmdori Erlikka yordamchi sifatida namoyon bo'ladi. U



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



o'lganlarning ruhlarini taqsimlash hamda ularning keyingi taqdirini belgilash uchun mas'ul bo'lgan". Erlik-qizning tipologik xususiyati skandinav mifologiyasidagi Odinning qizlari Valkiriyalar bilan o'ta yaqin ekanligini e'tirof etish talab etiladi. Shu bilan birga, turkiy mifologiya yer osti ma'budalari yevropa mifologiyasidagi xtonik (yer osti olamiga oid) ma'budalari – masalan, yunon ma'budasi Persefona yoki skandinav ma'budasi Xel bilan tipologik o'xshashlikni namoyon etadi. Biroq, M. S. Funsoning fikricha, "Yevropa mifologiyasidagi xtonik ma'budalar aksar hollarda salbiy jihatlar bilan ajralib turadigan bo'lsa turkiy mifologiyadagi yer osti olami ayol ma'budalari ko'proq ambivalent xarakterga ega bo'lib, ular ham yaratuvchanlik ham vayronkorlik funksiyalarini o'zida uyg'unlashtiradi".

Umumturkiy kosmologik tizimni namoyish etuvchi Tangrichilik ma'budlar panteoni bir necha ayol ma'budalarni o'z ichiga oladi, ular tabiat hodisalari va olam unsurlari bilan funksional bog'lgan. D.S. Dugarovning yozishicha, "Tangrichilik kosmologiyasida ayol ma'budalar odatda yer, suv hamda quyi olam bilan bog'langan bo'lib, erkak ma'budlar esa asosan osmon va yuqori olam bilan bog'liq bo'lgan". Shunday ma'budalaridan biri, Etugen (Etügen – "Ona-Yer") — yer va uning hosildor kuchlarining timsoli bo'lgan. Yer-Suv (Etügen) kulti qadimgi turklar orasida keng tarqalgan bo'lib, u O'rxun-Enasoy bitiklarida Osmon kulti bilan bir qatorda asosiy sig'inish obyekti sifatida tilga olinadi. Turkiy tillarda "etügen/itigən" so'zi "yer" so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu esa ushbu obrazning dunyo manzarasida chuqur ildiz otganligini ko'rsatadi. Talafuz jihatdan Etugenga yaqin bo'lgan, ma'buda Otiken (Ötükän) turkiy xalqlarning muqaddas yeri timsoli bo'lgan hamda turkiy xalqlar hududi himoyachisi sifatida tasvirlangan. O'rxun-Enasoy bitiklarida Otiken xalqning hayotiy kuchi jamlangan, ajdodlar ruhi yashaydigan, turk olamining muqaddas markazi sifatida ta'riflanadi. S. G. Klyashtorniy, qadimgi turkiylarda Otiken kultining davlatchilik g'oyasi bilan bog'liqligiga e'tibor qaratadi: "Otiken nafaqat hudud himoyachisi timsoli bo'lgan ayol ma'buda sifatida namoyon bo'ladi. Balki Turk Xoqonligi siyosiy birligining ramzi sifatida ham namoyon bo'ladi" Bu funksiya Otiken obrazini yevropa an'analaridagi, qadimgi yunon ma'budasi Afina yoki kelt mifologiyasidagi Brigita kabi himoyachi ma'budalarning davlatchilik kultlari bilan yaqinlashtiradi.

Janglar turkiy xalqlar hayotining ajralmas qismi bo'lganligi sababli ular hayotida jangchi ayol ma'budalari alohida o'rin egallagan. Tangrichilik ma'budlar panteonida va Barsning qizi Samar jangchi ayol arxetipi namunasi sifatida ko'riladi. Ushbu mifologik obraz o'zida qadimgi turkiy xalqlarning ayol ma'budalarga bo'lgan munosabati, ularning tabiiy kuchlar bilan aloqasi va harbiy qahramonlik timsolini mujassamlashtiradi. Samar uzun o'rilgan sochli, qo'lida gul tutgan go'zal qiz sifatida tasvirlanadi. U turli kasallik, ocharchilik, tabiiy ofatlar kabi sehrli qurollari yordamida dushmani mag'lub etadi. Kunlardan bir kuni yovuz Shurale, asosiy hayot manbai bo'lgan buloq atrofidagi daraxtlarni yo'q qilib, qurg'oqchilikni yuzaga keltiradi. Bu haqida xabar topgan Samar otiga minib, Shuralega qarshi jang qiladi. Shurale mag'lub etiladi, biroq zaharlangan hayot bulog'idan suv ichgan Samar mangu uyquga ketadi. Samarni hayotga qaytarish uchun Qarg'a va uning rafiqasi uni





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Basan deb nomlangan mo'jizaviy vodiya olib boradilar, u yerda mo'jizaviy o'simlikdan tayyorlangan hayot ichimligi (tirik suv) yordamida Samar abadiy uyqudan uyg'onadi. Biroq, hayot ichimligining ta'siri faqat kuz fasligacha yetadi. Shu sababdan har kuzda Samar uyquga ketadi. Qarg'a va uning rafiqasi Chal-chak esa har bahorda unga yana suv olib kelib uni uyg'otishadi. Ushbu rivoyat, tangrichilik da ayolning murkkab va ko'p qirrali tabiatini ochib beradi va ularning tabiat, tiklanish, ayol kuchi hamda mavsumiy o'zgarishlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Oliy qatlam ma'budlaridan tashqari, turkiy xalqlar mifologiyasida quyi qatlam ayol ruhlarning keng bir qatlamli panteoni mavjud. Ular orasida alvasti, yuxo va suv onasi (enasi) kabi ayol mavjudodlar alohida o'rin egallaydi.

Alvasti (albasti, almasti) — deyarli barcha turkiy xalqlar, shuningdek, ayrim kavkaz xalqlari mifologiyasida uchraydigan yovuz mavjudod. Alvasti sochlari yoyilgan, uzun ko'kraklarini yelkasining orqasiga tashlab yuradigan, mis yoki temir tirnoqlarga ega ayol ko'rinishida tasvirlanadi. Bu personajning asosiy vazifasi yangi tug'ilgan chaqaloqlar, tug'ayotgan ayollarga zarar yetkazishdan iborat. Bu uni Umay kabi homiy ayol ma'budalarga antipod, ya'ni qarama-qarshi timsolga aylantiradi. Qadimda, alvastida himoyalani uchun turli metal, buyum yoki olov kabi vositalardan foydalanilgan. U odatda qo'rqinchli, semiz, qop-qora uzun tirnoqli, suyloq tishli jonzot sifatida tasvirlanadi. Alvasti it, tulki yoki echki kabi hayvonlar qiyofasini qabul qila oladidi. U tug'ruq vaqtida hushini yo'qotgan ayol o'pkasini o'g'irlab oladi va uni suvga cho'ktirishga harakat qiladi – agar maqsadiga erishsa ayol nobud bo'ladi. Ushbu maxluq otlar bilan ham o'ynashadi, alvasti kechalari otlarga minadi hamda ularning yollarini o'rib qo'yadi, bu uning kelganini belgisi hisoblanadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida alvastini uch turga bo'linadi:

— Qora alvasti — eng xavflisidir u bilan to'qnashish o'lim bilan tugashi mumkin. Ba'zi manbalarda u 70 ta ko'krakka ega ekanligi aytilgan.

— Sari (sariq) alvasti — makkor va hiylakor, odamlarni aldashni yaxshi ko'radi. Masalan, u insonni qo'y go'ngini yeyishga majbur qilishi mumkin. Biroq, u juda ojiz — baxshilar uni qamchi bilan xaydab yuborishlari mumkin.

— Sassi alvasti (badbo'y) — faqat nomi ma'lum va boshqa ma'lumotlar saqlanmagan.

Bu obraz turkiy demonologiyada muhim o'rin egallaydi, u ayollarning vayron qiluvchi kuchi, kasalliklar, tug'ruq hamda o'lim bilan bog'liq xalqona tasavvurlarni namoyon etadi.

Turkiy xalqlar mifologiyasida uchraydigan ayol mifologik obrazlardan biri Yuho hisoblanadi. Yuho go'zal ayol ko'rinishiga kira oladigan yovuz ajdarho yoki ilon bo'lib, u erkaklarni o'ziga og'dirib halok qiladi. Ayrim xalqlar mifologiyasida Yuho erkak kishini o'zining go'zalligi bilan rom etib, unga turmushga chiqadi va tunda uning qonini ichib o'ldiradi. Yuhoni olov va sho'r yegulik yordamida fosh etish mumkin. Sho'r taom iste'mol qilgan Yuho tunda ilojsiz dengiz yoki ko'l bo'yiga o'zining asl ilon qiyofasida sudralib borib tashnaligini qondirishga harakat qiladi. Yuho obrazi tatar mifologiyasida ham uchraydi. Unga ko'ra, Yuho – bu ulkan ilon, yoshi mingga yetganda u odam qiyofasiga kira



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



olish qudratiga ega bo'lgan. Yuho har qanday odam qiyofasiga kirishi mumkinligiga qaramay, ko'pincha yosh va go'zal qiz ko'rinishini tanlaydi. Yuho o'zining go'zalligi bilan odatda qoni qaynoq hamda sodda yosh yigitlarni o'z domiga ilintiradi, ular bilan birga bo'lib, tunda qonini ichadi. Agar Yuho nikoh to'ydan keyin qirq kun ichida o'ldirilmasa, u turmush o'rtog'ini yeb quyadi. Yuhoni faqatgina suvsiz joyda o'ldirish mumkin. Yuhoda kindik bo'lmaydi va og'izdagi doimiy badbo'y hid va suvga bo'lgan ishtiyoq uni fosh qiladi. Yuho obrazining yunon mifologiyasidagi Meduza Gorgon bilan o'xshash tomonlari ko'zga tashlansa Su-Anasi obrazi esa ingliz episodagi Grendelning onasi obraziga yaqin turadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 11-jild: Xamsa: Saddi Iskandariy. – Toshkent: Fan, 1993. – 727 b.
2. Goliba M. Turonning alp qizlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1997. – 112 b.
3. Imamov K. O'zbek xalq nasri. – Toshkent: Fan, 1981. – 103 b.
4. Muhibova U. Qadimgi Hindiston eposlarining janubiy Hindiston xalqlari adabiyotiga ta'siri // Sharq va G'arb adabiyotini tarixiy-qiyosiy o'rganish masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 32–36.
5. Saidov M. O'zbek dostonchiligida badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1969. – 178 b.
6. Yusupova D. A. Navoiy ijodida ayol siymosi // Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari: xalqaro konferensiya materiallari. – 2023. – T. 4. – B. 191–196.
7. Абдурахмонов А. Туркий халқлар оғзаки ижоди. – Тошкент, 2004. – 234 б.
8. Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек версиялари. – Тошкент: Фан, 1979. – 384 б.
9. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. – Тошкент: Фан, 1979. – 152 б.